

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROTLASHTIRISH TO'G'RISIDAGI QONUN
HUJJATLARIDA INTELLEKTUAL MULK MUHOFAZASI MASALALARI**

Bahromov Lazizjon Azizjon o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti
magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mamlakatimizdagi axborotlashtirish va telekommunikatsiya faoliyatiga doir qonun hujjatlarida intellektual mulk, xususan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasiga qaratilgan e'tibor va uni himoya qilish borasidagi chora-tadbirlar, bajarilishi kutilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *intellektual mulk, mualliflik huquqi, axborotlashtirish, telekommunikatsiya tarmoqlari,*

Annotation: *This article focuses on the protection of intellectual property, especially copyright and related rights, as well as measures to protect it, as well as information about the work to be carried out, in the information and telecommunications legislation in our country.*

Key words: *intellectual property, copyright, informatization, telecommunication networks*

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya tarmoqlarning tez sur'atlarda rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotga jadallik bilan kirib kelishi ijodkorlarni o'z asarlariga bo'lgan mutloq huquqlar muhofazasini etarli darajada ta'minlash bo'yicha zarur choralarni ko'rishga undamoqda. Ma'lumki, so'nggi yillarda insonning axborot va ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyoji har qachongidan ham yuqori darajaga chiqqan. Ayniqsa, internet va telekommunikatsiya tarmoqlarining keng rivojlanishi natijasida bu bilan bog'liq jarayonlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, bu kabi jarayonlarni mualliflik huquqi ob'ektlarining ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bunda o'z navbatida mualliflik huquqi ob'ektlaridan foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Asarlardan foydalanish hamda ularni fuqarolik muomilasiga boshqacha tarzda kiritish bo'yicha nazoratning huquqiy mexanizmlari sifatida asosan asarlarni shartnoma asosida boshqarish va himoyalashning texnik usulini kiritish mumkin. Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarning deyarli barcha jabhalariga internet va telekommunikatsiya tushunchalari va ular bilan bog'liq munosabatlar kirib borganligini hamda buni fuqaroviy-huquqiy, jinoiy-huquqiy va ommaviy-huquqiy munosabatlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash kerakki, telekommunikatsiya tarmog'ida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar, kompyuter texnologiyalari yordamida axborot almashinuvi bilan bog'liq munosabatlar mavjudligi sababli huquqiy munosabatlarda bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda.

“Telekommunikatsiya” atamasi yunon va lotin tillarining o‘zaro aralashuvidan kirib kelgan bo‘lib, “tele” – uzoqda va lotincha “communico” – “bo‘lishishmoq” degan ma‘nolarni anglatadi. Ushbu so‘zni bugungi kundagi mazmunda foydalanilishi fransuz tilidan kirib kelgan va bunga 1904 yilda fransuz muhandisi va yozuvchisi Eduard Estone tomonidan uning yozma tarzda ishlatilishi sabab bo‘lgan.

Material va metodlar.

So‘nggi yillarda intellektual mulklarni himoya qilish borasida ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilindi. Ularning asosiy maqsadi shaffoflikni va xavfsizlikni ta‘minlashdan iborat. Intellektual mulk huquqlarining buzilishi bilan bog‘liq holatlar bugungi texnika asrida axborotlashtirish tizimlari hamda internet taqrimoqlarida ko‘p uchramoqda. Shu sababli, mamlakatimiz prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va xavsizlikni ta‘minlash borasida qarorlar qabul qilinmoqda. Shulardan biri, “Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridir. Unda quyidagi vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Ahamiyatlisi, O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni 63-moddasida ham asarlarni himoya qiluvchi texnik vositalar haqida so‘z yuritilgan. Xususan, “asarlardan yoki turdosh huquqlar ob‘yektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi, muallif, turdosh huquqlar egasi yoxud asarlarga yoki turdosh huquqlar ob‘yektlariga nisbatan mutlaq huquqlarning boshqa egasi tomonidan ruxsat etilmagan harakatlar amalga oshirilishining oldini oluvchi yoki ularni cheklovchi har qanday texnik qurilmalar yoxud ularning tarkibiy qismlari mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalari deb e‘tirof etiladi”.

O‘zbekistonda intellektual mulk huquqiga doir so‘nggi paytlarda qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida ushbu sohani telekommunikatsiya tarmog‘i bilan aloqadorligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 apreldagi “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-221-son qarorida ham telekommunikatsiya sohasida mualliflik va turdosh huquqlarni muhofaza qilish bo‘yicha quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi:

- O‘zkomnazorat Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2022 yil 1 oktyabrga qadar Internetda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan veb-saytlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oluvchi “Mualliflik va turdosh huquqlar sohasidagi qonunbuzilishlar reyestri” axborot tizimini ishga tushirish;

- veb-saytlar tomonidan mualliflik va turdosh huquqlar tizimli ravishda buzilishi isbotlangan taqdirda, O‘zkomnazorat Adliya vazirligining xulosasi asosida mazkur veb-saytlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qonunbuzilishlar reyestriga kiritadi va uning ko‘rsatmasiga muvofiq Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish

vazirligi ushbu veb-saytlar faoliyatini mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzuvchi hatti-harakatlar bartaraf etilmaguniga qadar cheklash;

- 2022 yil 1 maydan boshlab Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining fonogrammalar va audiovizual asarlarni tarqatishda mualliflik huquqi himoyasini ta'minlash bo'yicha qonunchilikka rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlari to'liq O'zkomnazoratga o'tkazish;

- Butunjahon intellektual mulk tashkiloti ko'magida Adliya vazirligi hamda O'zkomnazorat faoliyatida "WIPO Alert" onlayn platformasidan foydalanishni yo'lga qo'yish.

Yuqoridagi qarorda mualliflik huquqini internet va telekommunikatsiya tarmoqlarida muhofaza qilishga doir muhim jihatlar o'rin egallagan bo'lib, ushbu vazifalar o'zining ahamiyatiga ko'ra juda ham dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari.

Xususan, so'nggi yillarda intellektual mulk obyektlaridan raqamli muhitda noqonuniy foydalanish holatlari ko'payib borayotgani, vazirlik tomonidan 2022-yilda birgina mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi huquqbuzarlik holatlarining 31 % internet tarmog'ida sodir etilgani aytiladi.

Darhaqiqat, intellektual mulkka oid normalar faqat maxsus qonunlarda belgilangan bo'lib, boshqa sohaviy qonunchilik hujjatlarida etarlicha o'z aksini topmagan.

Hozirgi kunda axborot uzatuvchi tarmoqlardan foydalanish doirasi juda ham kengayib bormoqda. Bu yo'nalishda albatta xavfsizlik va himoya nuqtai nazaridan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish talab etiladi. Huquqni himoya qilish uning muhofaza qilinishi va ta'minlanishining eng muhim omillaridan biridir. Amaliyotga ko'ra, har qanday huquq himoya qilish mexanizmi bilan mustahkamlangan bo'lsagina, uni amalga oshirish mumkin. Umuman olganda, O'zbekistonda Intellektual mulk huquqi va mualliflik huquqlar muhofazasini ta'minlash bo'yicha aniq o'ylangan va mustahkam davlat siyosatini ishlab chiqish talab etiladi.

Intellektual mulkda ob'yektlarning ikki guruhi alohida ajralib turadi: san'at bilan bog'liq badiiy asarlar va sanoat tarmog'i xususan yangi buyumlar, tovarlar va texnologiyalarni ishlab chiqish va bozorga taklif etish bilan bog'liq ob'yektlar. Aynan ana shu vaziyatlar XX asrda jahonda umumqabul qilingan xalqaro huquqiy standartlar shakllanishiga olib keldi, shunga muvofiq intellektual mulk o'z ichiga ikki asosiy huquqlar sohasini oladi: mualliflik va turdosh huquqlar, unga muvofiq ilmiy, adabiy, musiqiy, badiiy, fotografiya va audiovizual asarlarga huquqlar, shuningdek, fonogramma ishlab chiqaruvchilar va ijrochilar, efir va kabel eshittirishlari tashkilotlarining huquqlari himoya qilinadi; - sanoat mulki, u ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, shuningdek, tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joyi, firma nomlariga huquqlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari noan'anaviy intellektual mulk ob'yektlari ham mavjud bo'lib, ular mualliflik huquqi va sanoat mulki o'rtasida turib, o'z ichiga: EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar

bazalari; integral mikrosxemalar topologiyasi; seleksiya yutuqlari; oshkor etilmagan axborot (nou-xau)larni oladi. Sanab o'tilgan barcha muayyan huquqiy muhofaza ob'yektlari, xususan, badiiy asarlar va san'at turlari, ixtirolar, tovar belgilari, EHM uchun dasturlar va hokazolar intellektual mulk ob'yektlari deb ataladi. Bundan tashqari, sanoat mulkining mualliflik huquqi muhim farqi shundan iboratki, sanoat mulki mualliflik huquqi kabi tegishli ob'yekt yaratilgan vaqtdan boshlab o'z-o'zidan amal qilmaydi. Sanoat mulki huquqlarini muhofazalash uchun, masalan, ixtiroga muhofaza hujjatining mavjud bo'lishi shartdir. Ushbu muhofaza hujjatida davlat tomonidan huquqiy muhofaza kafolatlanadigan huquqlar hajmi aniq belgilab beriladi. Turli mamlakatlardagi qonunchilikka ko'ra ushbu muhofaza hujjatlari turlicha nomlanadi.

Hozirgi kunda axborot uzatuvchi tarmoqlardan foydalanish doirasi juda ham kengayib bormoqda. Bu yo'nalishda albatta xavfsizlik va himoya nuqtai nazaridan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish talab etiladi. Huquqni himoya qilish uning muhofaza qilinishi va ta'minlanishining eng muhim omillaridan biridir. Amaliyotga ko'ra, har qanday huquq himoya qilish mexanizmi bilan mustahkamlangan bo'lsagina, uni amalga oshirish mumkin. Umuman olganda, O'zbekistonda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini ta'minlash bo'yicha aniq o'ylangan va mustahkam davlat siyosatini ishlab chiqish talab etiladi.

Telekommunikatsiya tarmoqlarida mualliflik huquqini himoya qilishni yanada takomillashtirish bo'yicha ishlarni xalqaro standartlar asosida yuritishni amalga oshirish uchun O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha islohotlarni amalga oshirish lozim:

- virtual muhitda asarlardan foydalanish uchun shartnomaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va keng joriy etish;
- mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish institutini takomillashtirish;
- mualliflik huquqi va turdosh huquqlar ob'yektlarini huquqiy muhofaza qilishning yangi tartiblarini (blokcheyn) joriy etish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini bajarish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini yaratish.

Shu bilan birga, Jinoyat kodeksida mualliflikning o'zlashtirilgani uchun hamda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning buzilganligi uchun alohida moddalarni kiritish lozim. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzganlik uchun javobgarlik choralarini oshirish Jahon savdo tashkilotining TRIPS bitimining ham talablaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi takliflar bo'yicha ishlarni to'g'ri va tizimli tarzda yo'lga qo'yilishi, o'ylaymizki mualliflik huquqini himoyasini ta'minlashga bu orqali esa ijodkorlar mehnati uchun tegishli haqlarni to'lanishiga hamda mamlakatimizda madaniyat va san'atni rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, telekommunikatsiya tarmog'ida mualliflik huquqlari himoyasini ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish

hamda O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi tadqiqot ishlari hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ishlarni jadallashtirish zarur ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarida intellektual mulk huquqini himoya qilishni yanada takomillashtirish bo'yicha ishlarni xalqaro standartlarga mos ravishda yuritishni amalga oshirish uchun O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha islohotlarni amalga oshirish lozim:

- kiber muhitda asarlardan foydalanishda xavfsizlik uchun shartnomaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va keng tadbiq etish;

- mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish institutini takomillashtirish; - intellektual mulk huquqlar ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilishning yangi tartiblarini yaratish;

- O'zbekiston Respublikasining qonunlari bo'yicha majburiyatlarini bajarish yuzasidan chora-tadbirlar loyihasini yaratish. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksida intellektual mulkdan foydalanish tartib-qoidasini buzganlik uchun alohida moddalarni kiritish va jazo qo'llash bo'yicha kerakli qonunlarni ishga tushirish joizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Johannes_Gutenberg
2. https://en.wikipedia.org/wiki/History_of_copyright
3. <https://www.hse.ru/data/2021/02/28/1395780833/16.tis-2014-1-tomxvi.pdf>
4. <https://www.cisac.org/>
5. Yuldashov, A. (2020). Intellektual mulk bo'yicha milliy strategiyalarning ahamiyati va Butunjahon intellektual mulk tashkilotining bu borada tutgan o'rni.[The importance of national intellectual property strategies and the role of the World Intellectual Property Organization in this regard. Legal Information,] Yurist axborotnomasi, 1(2), 53-59.
6. Тўракулова Н., Юлдашов А. Интеллектуал мулк ҳуқуқи ҳимоя қилиш механизмини такомиллаштиришда халқаро шартномаларнинг ўрни ва аҳамияти //Conferencea. – 2022. – С. 467-471.
7. Юлдашов А. Географик кўрсаткич тушунчаси ва иқтисодий мустақамлашда унинг тутган ўрни //Юрист ахборотномаси. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 249-257.
8. Юлдашев А. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarning intellektual mulk hamda innovatsiyalarni yaratishga doir faoliyatini takomillashtirish masalalari //in Library. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 58-65.
9. Юлдашов А., Чориев М. Договорно-правовые отношения в области авторского права и ответственности за нарушение авторского права: национальный и зарубежный опыт //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/s. – С. 511-522.

10. Yuldashov, A. A. "Government policies related to social protection of disabled persons in Uzbekistan: National and international aspects" (2012): 186-191.

11. Abdugopirovich, Yuldashov Abdumumin. "Types of Legal Protection of a Trademark (Service Mark) In Foreign Countries: The Example of The Madrid System". Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT) 12.4 (2021): 1068-1073.

12. Юлдашов А. А. Необходимость участия Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах в области интеллектуальной собственности //Электронный инновационный вестник. – 2021. – №. 1. – С. 18-20.

13. Юлдашов А. Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулк, алоқа ва ахборот соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда муаллифлик ҳуқуқини муҳофаза қилишга доир нормаларни такомиллаштириш масалалари //Юрист ахборотномаси. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 58-64.

14. Yuldashov A., Usmonov V. Copyright protection in telecommunications networks: the example of blockchain technology //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 4. – С. 22-29.

15. Yuldashov A., Usmonov V. Copyright Protection in Uzbekistan by The Collective Management Organizations //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 25. – С. 185-188.

16. Юлдашов А. Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулк, алоқа ва ахборот соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда муаллифлик ҳуқуқини муҳофаза қилишга доир нормаларни такомиллаштириш масалалари //Юрист ахборотномаси. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 58-64.

17. YULDASHOV A. Intellectual property law policy in Uzbekistan //Global Scientific Review. – 2023. – Т. 12. – С. 80-85.

18. Юлдашов А. А. Роль организаций, управляющих имущественными правами на коллективной основе, в обеспечении защиты авторских прав: опыт Узбекистана и мира //Цифровая среда и политика университетов в сфере интеллектуальной собственности. – 2021. – С. 198-205.

19. Юлдашов А. Кутубхона, рақамли контент ва муаллифлик ҳуқуқи //Information Library Magazine'INFOLIB'. – 2022. – №. 4.